

SANOAT KORXONALARI SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING AHAMIYATI

Ajimamatova Xurshida

*Andijon Mashinasozlik instituti, Iqtisodiyot fakulteti
Menejment yoʻnalishi 4- kurs K 10-20 guruh talabasi*

Ilmiy rahbar: Safina Nafisa

*AndMI Buxgalteriya hisobi va menejment kafedrası
katta oʻqituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, yengil sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmentining roli asoslab berilgan, tizimli yondashuvlar va ISO standartlari koʻrib chiqilgan.

Kalit soʻzlar: raqobatbardoshlik, sifat menejmenti tizimi, standartlash, sertifikatlash, modernizatsiya, devirsifikatsiya.

Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiy taraqqiyotga erishishga juda katta eʻtibor qaratilmoqda. Asosan mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qoʻshimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga oʻtkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish oldimizga maqsad qilib qoʻyilgan.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 24 dekabrda “Toʻqimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF – 5285sonli farmoni qabul qilindi. Farmonning ijrosi sifatida Respublikamizda keng turdagi sifatli toʻqimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan choratadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Maqolada Gʻ.Xojiaxmedov, I.Yaxyayevalarning kitoblari va SH.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba sifatida belgilandi.

Ushbu maqolada ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik, obyektivlik usulidan foydalanilgan boʻlib, mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmentining ahamiyati obyektiv tahlil qilib oʻtili.

Muhokama va natijalar. Yengil sanoat mahsulotlari sifatini yaxshilash strategik muammo boʻlib, mamlakatimiz iqtisodiyotining stabillashuvi bu muammolarning hal etilishiga bogʻliqdir. Sifatni yaxshilash jarayoni mahsulotni sotish yoki mahsulot ishlab

chiqarishda faqatgina ko‘proq foyda olish uchungina emas, balki jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun ham zarurdir.

Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ISO 9000 seriya standartlari qabul qilingach, sifatni kompleks boshqarishning ma’lum darajasi belgilab berildi. U sifatni samarali boshqarishni ta’minlab, ISO 9000 seriyali standartlarining barcha zarur elementlari, hamda korxonada ixtisoslashuvi uchun qo‘shimcha talab etilgan elementlarni ham, korxonaning ish amaliyotiga joriy etilishi kerakligini shart qilib qo‘yadi va bu bilan buyurtmachiga sifat kafolatini beradi. ISO 9000 standartlari va Sifat menejmenti tizimini joriy etish konsepsiyasi korxonalarining faoliyat turiga ham, katta-kichikligiga cheklovlar qo‘ymaydi [2].

ISO standartlari turkumining universalligi shundaki, ularda mahsulotning har bir turiga bo‘lgan mutloq o‘lchovli mezonlar qo‘yilmaydi. Buning iloji ham bo‘lmasdi, chunki sifat – mahsulot va xizmatlarning insonlar ehtiyojlarini qondira olish xususiyati, inson ehtiyojlari esa – bitmas-tuganmas va o‘zgaruvchidir. ISO 9000 standartlari turkumi faqat sifat tizimining ishlashi metodologiyasini aniqlab beradi, tizim esa o‘z navbatida korxonada tomonidan ko‘rsatilayotgan mahsulotning yuqori sifatini, boshqacha qilib aytganda – iste’molchilarning talabini yuqori darajada qanoatlantirishini ta’minlaydi.

ISO 9000 standarti 9000 seriyali ISO standartlaridan qay birini tanlash va qanday qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomani o‘z ichiga olib, ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlari (“sifatni ta’minlash modellari”, deb ham ataladi) mahsulot hayotiy siklining turli bosqichlari uchun mo‘ljallangan, sifat tizimiga qo‘yilgan me’yoriy talablardan iboratdir. Standartlar to‘plami 4 ta asosiy standartdan iborat:

1. ISO 9000:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug‘at” – sifat menejmenti tizimlarining asosiy qoidalari va Sifat menejmenti tizimi atamalarini izohlaydi.

2. ISO 9001:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Talablar” – sifat tizimlari uchun minimal zarur bo‘lgan talablar majmuini joriy qilib, sertifikatlash va audit maqsadlarida qo‘llaniladi.

3. ISO 9004:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar” - korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan sifat menejmenti tizimlarini yaratish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalardan iborat.

4. ISO 19011 “Sifat menejmenti tizimini tekshirish va atrof-muhitni himoyalash bo‘yicha yo‘riqnomalar” [3].

Tuzilishi va mazmuni bo‘yicha o‘zaro to‘liq uyg‘unlashtirilgan ISO 9001 va ISO 9004 standartlari asosiy hisoblanib, ular ham birga, ham alohida qo‘llanishi mumkin. Bundan tashqari, qo‘shimcha 10000 seriyali ISO yordamchi standartlari guruhi ham mavjud bo‘lib, bularga Sifat menejment tizimiga taalluqli hujjatlarni ishlab chiqish,

sifatning iqtisodiy masalalari, xodimlarni o'qitish, statistik usullarni qo'llash va hakoza bo'yicha turli qo'llanmalar kiradi [5].

Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirish iste'molchiga e'tiborni qaratishga asoslangan bo'lishi kerak. Korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi, avvalo uning buyurtmachilariga bog'liqdir. Shu boisdan, har qanday tadbirkorlik faoliyati bozorni tahlil qilish va mijozlarning ehtiyojini o'rganishdan boshlanishi kerak. Shu bilan birga, ideal variant

- nafaqat buyurtmachilarning rasmiy talablarini bajarish, balki ularning istaklarini oldindan ko'ra bilishdir. Iste'molchilarning talablari va tashkilot faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa tomonlar (aksiyadorlar, ta'minotchilar, davlat organlari, butun jamiyat)ning ehtiyojlariga ham baravar yondoshuvni ta'minlash zarur.

Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda rahbariyat ko'magisiz salmoqli natijalarga erishish mushkul. Tashkilot rahbarlari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, maqsadlarini, shuningdek, ularni amalga oshirish usullarini belgilashadi. Ular shunday shart-sharoit yaratishlari lozimki, xodimlar nafaqat rahbariyat buyruqlarining ijrochisiga, balki ishlab chiqarish masalalarini hal etishda manfaatdor qatnashchilarga aylanishlari lozimdir.

Xodimlarni jalb qilish, amalda har bir xodimning boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muntazam ishtirok etishini bildiradi. Biznes-jarayonlarni hujjatlash, uslubiy yo'riqnomalar, lavozim vazifalari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hisobiga korxonaning faoliyat ishlab chiqarishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xodimlarning bilimi va malakasi oshadi. Ichki samaradorlikni oshirish, xodimlarning yuz berayotgan biznes-jarayonlar uchun mas'uliyatini mustahkamlash, uzluksiz takomillashishga, bevosita mahsulot va mahsulot sifatini yaxshilashga olib keladi. Bu omil ham ISO 9000 me'yorlari bo'yicha Sifat menejment tizimini joriy etish va sertifikatlashga sabab sifatida ko'p eslatiladi.

Bundan tashqari, ko'p tashkilotlar sertifikat mahsulot sifatini kafolatlay olmasligini anglaydi, shu boisdan ISO 9000 standartlarini sifatni yaxshilash jarayonini boshlash uchun yaxshi bazis deb hisoblashadi. Kanji fikricha, ISO 9000 standartlarining muhim xususiyati – uning tuzilishidir. U, qo'llashga qulay bo'lgan tadbirlar, elementlar va talablarning universal majmuini tashkil etadi. Shuningdek, sifatni ta'minlash tizimlarini ishlab chiqish, baholash, qo'llash, belgilash va sertifikatlashning asosini ham ta'minlaydi. Shunday qilib, ISO 9000 talablari "Total quality management" madaniyatini o'zlashtirish va sifat bo'yicha milliy mukofotlar mezonlarini qo'llash uchun jiddiy negiz yaratadi.

Agarda yengil sanoat sohasida ishlaydigan korxonalar ISO 9000 ni qo'llamasa, lekin standartlar talabiga mos keladigan Sifat menejmenti tizimini joriy etsa va sertifikatlasa, qo'shimcha raqobat ustunligiga erishishlari mumkin (ayrim hollarda).

Sifat menejmenti tizimi uchun ISO 9000 sertifikatini zaif korxonalar uchun savdo to'sig'i bo'lib qolishi ham mumkin). Lekin ko'pincha teskari holat yuz beradi, ya'ni korxonalar faqat raqiblaridan orqada qolmaslik uchungina ISO 9000 sertifikatini olishga majbur bo'ladilar. ISO 9000 sertifikatining mavjudligi korxonaning sifat g'oyalariga sodiqligini dalolatlaydi, bu uning ham ichki, ham tashqi bozorlardagi imidjini mustahkamlaydi. Shunga ko'ra ba'zida, hukumat va boshqa aloqador shaxslar (mijozlar, ta'minotchilar, nazorat organlari) bilan munosabatlarni yaxshilashga intilish tufayli, ISO 9000 asosidagi Sifat menejment tizimi joriy etiladi [2].

Yengil sanoat korxonalari uchun ISO 9000 sertifikatini muayyan bozorlarda ishlashning zaruriy shartiga aylangan. Yaqqol misol tariqasida, ko'p tarmoqlar ta'minotchilaridan, ISO 9000 standartlariga mos keladigan Sifat menejment tizimiga ega bo'lishni talab etuvchi Evropa Ittifoqini keltirish mumkin. Bundan tashqari, xorijiy kontragentlar to'g'risidagi ma'lumotning taqchilligi sharoitida, Sifat menejment tizimi uchun mo'ljallangan ISO 9000 sertifikatini mavjudligi sherikning nufuzli ekanini, zamonaviy ishbilarmonlar doirasiga mansubligini ko'rsatadi.

Shubhasiz, mahsulot sifatini yaxshilash, unumdorlikni oshirish, chiqimlarni kamaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi omillar korxonaning bozordagi ulushi ortishiga olib kelishi mumkin. Korxonalar ISO 9000 talablari bo'yicha sifat menejment tizimini joriy etish va sertifikatlashi uchun zarur bo'lgan sabablarning ko'pligini inobatga olib, ularni tartibga solish va tasniflash variantlarini ko'rib chiqaylik. Sabab bo'luvchi omillarni "ichki" va "tashqi" omillarga bo'lish mumkin [2]. Ichki sabablar korxonaning samarasi va mahsuldorligini yaxshilash bilan bog'liq. Bularga: mahsulot sifatini yaxshilash; ichki jarayonlarni jadallashtirish; harajatlarni kamaytirish; xodimlar bilan munosabatni yaxshilash; axborot almashuvi va tahlili tartiblarini o'rnatish; "Total quality management" konsepsiyasini amalga oshirishga tayyorgarlik va boshqalarni kiritish mumkin. Tashqi sabablar korxonada atrofda biznes-muhitga (mijozlar, ta'minotchilar, davlat organlari) bo'lgan ta'sirga bog'liq. Bunda, sifat menejmenti tizimi uchun rasman tasdiqlangan hujjat, ya'ni, sertifikat ana shu ta'sir vositasidir.

Bularga korporativ imidjni yaxshilash, eksport faoliyatini yengillashtirish, ham ichki, ham tashqi bozordagi iste'molchilarning talablarini qondirish, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash, jamiyat bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, raqiblardan ajralib turish, raqobatda ustunlikka ega bo'lish (yoki aksincha, sertifikatini bo'lgan raqiblardan kuchsiz bo'lmaslik) va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa. Korxonalarda xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi sifat menejmenti tizimining joriy etilishi sifat sohasidagi maqsadlarning bajarilishiga, auditlar natijasida nomuvofiqliklar sonining kamayishiga, potensial muammolarni bartaraf etish bo'yicha oldini oluvchi amallarning to'g'rilovchi amallarga nisbatini,

mahsulot rentabelligining oshishiga, iste'molchilar qanoatlanganligining oshishiga, shuningdek, korxonalar iqtisodiy samaradorligining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. 2017 yil 24 dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5285 sonli farmoni.
3. Xojiaxmedov G., Yaxyayeva I. va boshqalar. Sifat menejmenti. Darslik. T. –2012 y.
4. Ismatullaev P.R., Maqsudov A.N. va boshqalar. Metrologiya standartlashtirish va sertifikatlashtirish
5. Азгалдов, Г. Г. (1969). Проблемы измерения и оценки качества продукции.
6. Рахимова, Д. Н., & Касимова, Н. (2016). Принципы управления персоналом в Японии. Потенциал современной науки, (4), 111-117.
7. Ансофф, И. (2010). Стратегический менеджмент. Классическое издание/пер. с англ.
8. ФЕЙГЕНБАУМ, А. (2010). Повышая планку. Стандарты и качество, (1), 90-93.
9. Семенова, В. В., Боташева, Л. С., & Петросян, Д. С. (2017). Основы менеджмента.
10. Dadajanova Martabxon Mahmudovna. (2022). JAPANESE EXPERIENCE ISSUES OF MODERN MANAGEMENT AND PERSONNEL RE-TRAINING SYSTEM. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 *Impact Factor:7.429, 11(06), 123–128.* Retrieved from <http://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/654>.
11. Sativaldieva Gulchehra Khudayberdievna. (2021). MODERN CONCEPTS OF CONTROLLING AND ITS CONNECTION WITH THE ACCOUNTING SYSTEM. *World Economics and Finance Bulletin*, Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/365>.
12. Bostonova Nilufar. "WAYS OF DEVELOPING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 10.12 (2022): 690-695.;
13. Khalilov Nurullo Khamidillayevich, Safina Nafisa Talgatovna, "Development of the quality management system of industrial enterprises the main factor of increasing the competitiveness of products". "World Economics and Finance Bulletin", 2022. [электронный ресурс] <https://www.scholarexpress.net/>
14. <http://www.standart.uz>